

XALQARO INSTITUTLAR VA GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA

Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistent-stajyori,

e-mail: usmonov.murodbek95@gmail.com

Tel: +998 937220855

Mavlonov Shaxriyor

Samarqand iqtisodiyot va servis

instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro institutlar va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda moliyaviy, savdo, mintaqaviy, sohaviy va standartlashtirish institutlarining vazifalari va milliy iqtisodiyotlarga ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston misolida integratsiya jarayonining ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqilib, xalqaro institutlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishning strategik ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari institutlar tizimining murakkab va ko'p qirrali xususiyatlarini, ularning global va mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni va samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: xalqaro institutlar, global iqtisodiy integratsiya, moliyaviy institutlar, savdo va mintaqaviy tashkilotlar, o'zbekiston iqtisodiyoti, institutsional hamkorlik.

Kirish

Global iqtisodiy integratsiya va xalqaro institutlarning roli bugungi kunda jahonda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida keng tadqiq qilinmoqda. Davlatlar o'rtasidagi savdo liberalizatsiyasi, kapital oqimlari, texnologik hamkorlik va investitsiyalar global iqtisodiyotning samarali ishlashini ta'minlaydi. Shu kontekstda xalqaro institutlar va boshqa tashkilotlar integratsiya jarayonlarini tartibga solishda va milliy iqtisodiy siyosatlarni muvofiqlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mavzuning dolzarbligi so'nggi yillarda kuchaygan global iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Pandemiya, geosiyosiy ziddiyatlar, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va savdo proteksionizmi xalqaro aloqalarni qayta ko'rib chiqishga turtki berdi. Shu bois, milliy iqtisodiyotlar va xalqaro institutlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash va integratsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish bugungi kun dolzarb masalalaridan biridir.

Ilmiy nuqtai nazardan, institutlar va iqtisodiy integratsiya o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish institutsional sifat, boshqaruv samaradorligi va milliy

siyosatlarini global sharoitga moslashtirish masalalarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, institutlar faqat savdo va kapital oqimlarini tartibga solish bilan cheklanmay, balki milliy iqtisodiy strategiyalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro institutlar bilan integratsiya milliy iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish, savdo hajmini oshirish va texnologik rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bois, xalqaro institutlar va global iqtisodiy integratsiya munosabatlarini ilmiy asosda o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, milliy siyosatni strategik rejalashtirishda muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro institutlar jahonda mamlakatlarning o'zaro integratsialashuvini ta'minlaydigan infartuzilma hisblanadi. Ushbu infratuzilma globallashuv jarayonini tezlashishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Ushbu jarayonlarni yoritish bo'yicha ko'plab olimlar izlanish olib borishgan. Jumladan, Dani Rodrikning "The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy" nomli asarida global iqtisodiy integratsiya, milliy suverenitet va demokratik institutlar o'rtasidagi ziddiyatni tahlil qilgan [1]. Tadqiqotchi xalqaro institutlar orqali amalga oshirilayotgan chuqur integratsiya milliy institutlarning mustaqilligini cheklashi mumkinligini asoslab beradi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u global integratsiyani faqat iqtisodiy foyda nuqtayi nazaridan emas, balki institutsional va siyosiy barqarorlik bilan bog'liq holda yoritgan.

Xuddi shunday, Joseph E. Stiglitzning "Globalization and Its Discontents Revisited" maqolasida xalqaro moliyaviy institutlar, xususan Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon bankining global integratsiyadagi rolini tahlil qiladi [2]. Olimning fikricha, ushbu institutlar tomonidan ilgari surilgan yagona siyosiy-iqtisodiy retseptlar ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy muvozanatning buzilishi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan. Shuningdek, ushbu maqola xalqaro institutlarning boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish zaruratini asoslab beradi.

Shuningdek, Douglass C. Northning "Institutions, Institutional Change and Economic Performance" nomli asarida institutlar iqtisodiy integratsiyaning asosiy omili sifatida talqin qilinadi [3]. Olim rasmiy va norasmiy institutlarning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ahamiyatini nazariy jihatdan asoslab beradi. Ushbu asarda global integratsiya faqat savdo va kapital oqimlari emas, balki institutlar sifati bilan belgilanadi degan g'oyani ilgari suradi.

Jeffrey A. Frankel va boshqa olimlar tomonidan yozilgan "The Endogeneity of the Optimum Currency Area Criteria" nomli maqolada iqtisodiy integratsiya va institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik valyuta ittifoqlari misolida tahlil qilinadi [4]. Tadqiqotda integratsiya jarayonida xalqaro institutlarning rolini kuchaytirish iqtisodiy

uyg'unlashuvni tezlashtirishi isbotlanadi. Mazkur maqolaning ahamiyati shundaki, u global integratsiyani dinamik jarayon sifatida ko'rsatadi. Mualliflarning hissasi – institutlar integratsiya natijasi emas, balki uning faol katalizatori ekanligini ilmiy asoslashidir. Ilmiy bo'shliq sifatida rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasining kam yoritilgani qayd etiladi.

O'zbek tadqiqotchilari, Sh. Egamberdiyev va A. Qobulov o'zlarining "O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga xalqaro integratsiya ta'siri masalalari" nomli maqolada global integratsiya tamoyillarini O'zbekiston kontekstida tahlil qiladi. Olimlar milliy iqtisodiyotga integratsiyaning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqadi, shu jumladan ochiqlik siyosati, savdo aloqalari va sarmoyalar oqimi orqali integratsiyaning ta'sirini tahlil qiladi [5].

D.Rakhmonovanning "What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions" nomli maqolasi xalqaro moliyaviy institutlar bilan integratsiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganadi. Maqola global moliyaviy institutlar bilan hamkorlik milliy iqtisodiy tuzilmalarni qanday o'zgartirayotgani, savdo balansi, tashqi qarz va iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qiladi [6]. Bu manba institutlar bilan integratsiyaning real iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot xalqaro institutlar va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining o'zaro ta'sirini aniqlash maqsadida qiyosiy-tarixiy, tizimli, statistik va ekonometrik metodlardan foydalanadi. Qiyosiy-tarixiy tahlil orqali XX–XXI asrlarda institutlar tizimi shakllanishi va rivojlanishining tarixiy jarayonlari o'rganildi, tizimli tahlil yordamida esa moliyaviy, savdo, mintaqaviy, sohaviy va standartlashtirish institutlarining funksiyalari va integratsiyaga ta'siri tizimli ravishda tasvirlandi.

Tahlil va natijalar

Ushbu tadqiqot doirasida xalqaro institutlarning global iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi o'rni va ta'sirini aniqlash maqsadida keng qamrovli tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tizimli tahlil, statistik va ekonometrik usullardan foydalanildi. Xalqaro moliya tashkilotlari, savdo guruhlar va mintaqaviy integratsion birlashmalarga oid ko'rsatkichlar o'rganildi. Ma'lumotlar to'plash jarayonida Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon savdo tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik bazalari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Tahlil davomida so'nggi yigirma yillik davrdagi o'zgarishlar, tendentsiyalar va iqtisodiy natijalar chuqur ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy xalqaro institutlar tizimi murakkab va ko'p qirrali tuzilmaga ega. Ular o'z faoliyat yo'nalishlari, vazifalar doirasi va ta'sir kuchi jihatidan sezilarli farqlanadi. Institutlarning asosiy turlari orasida moliyaviy, savdo, mintaqaviy va sektorli tashkilotlar alohida o'rin tutadi. Har bir

institut turi o'ziga xos boshqaruv mexanizmlari, qaror qabul qilish tartibi va a'zolik shartlariga ega. Moliyaviy institutlar asosan kreditlash, texnik yordam va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan shug'ullansa, savdo tashkilotlari bojxona to'siqlarini kamaytirish va tijorat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. Mintaqaviy birlashmalar esa ma'lum hudud doirasida chuqur integratsiyani shakllantirish vazifasini bajaradi. (1-jadval)

1-jadval.

Xalqaro institutlar turlari va ularning asosiy vazifalari [7], [8], [11]

Institut turi	Asosiy namoyandalar	Asosiy vazifalar
Jahon moliyaviy institutlar	Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa qayta qurish va taraqqiyot banki	Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, kredit resurslarini taqsimlash, iqtisodiy inqirozlarni oldini olish, rivojlanayotgan davlatlarga yordam
Savdo tashkilotlari	Jahon savdo tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot konferensiyasi	Xalqaro savdoni liberallashtirish, bojxona tariflarini kamaytirish, savdo nizolarini hal qilish, bozor kirishini osonlashtirish
Mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar	Yevropa Ittifoqi, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik, Janubiy Amerika umumiy bozori	Mintaqaviy savdoni rivojlantirish, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashti-rish, investitsiya oqimlarini kuchaytirish
Sohaviy tashkilotlar	Xalqaro energetika agentligi, Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti	Muayyan sohalarni tartibga solish, texnologiya almashinuvi, narxlarni barqarorlashtirish, standartlarni ishlab chiqish
Rivojlanish institutlari	Osiyo taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Amerika qitasi taraqqiyot banki	Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, qashshoqlikni kamaytirish, texnologiya uzatish, inson salohiyatini rivojlantirish

Standartlashtirish tashkilotlari	Xalqaro standartlashtirish tashkiloti, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi	Texnik standartlarni ishlab chiqish, sifat nazoratini ta'minlash, uyg'unlikni shakllantirish
---	--	--

Yuqorida keltirilgan jadvalda xalqaro institutlarning oltita asosiy turi, ularning vakolatlari va faoliyat doiralari tizimli shaklda taqdim etilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir institut turi muayyan funktsiyalarni bajarish uchun ixtisoslashgan va o'z ta'sir doirasiga ega. Moliyaviy institutlar global darajada faoliyat yuritib, eng keng qamrovli vakolatlarga ega bo'lsa, mintaqaviy tashkilotlar muayyan geografik hududda chuqurroq integratsiyani ta'minlaydi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, eng qadimgi xalqaro institut Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi bo'lib, u o'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmida tashkil etilgan, bu esa xalqaro hamkorlik zaruratining uzoq tarixga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Jadval ma'lumotlarini batafsil tahlil qilish jarayonida bir necha muhim xulasalar olindi. Birinchidan, xalqaro institutlarning aksariyati Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda, ayniqsa to'rtinchi o'n yillikdan boshlab tashkil topgan, bu esa global tartibni qayta qurish va yangi xalqaro munosabatlar tizimini yaratish zaruriyatidan kelib chiqqan. Ikkinchidan, institutlarning vazifalar doirasi tobora kengayib, oddiy savdo yoki moliya masalalaridan tashqari, ekologiya, ijtimoiy rivojlanish va texnologiya almashish kabi sohalarga ham kirib bormoqda. Uchinchidan, global va mintaqaviy institutlar o'rtasida funktsiyalar bo'linishi aniq kuzatiladi: global tashkilotlar umumiy qoidalar va standartlar belgilasa, mintaqaviy birlashmalar mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan mexanizmlarni joriy qiladi.

2-jadval.

Xalqaro institutlar [8], [9], [10], [12]

№	Institut nomi	Tashkil etilgan yili	Tashkil etilgan joy	A'zolar soni	Asosiy vazifasi	Bosh qarorgoh
Moliyaviy institutlar	Jahon banki	1944	Bretton-Vuds, AQSH	189 davlat	Qashshoqlikni kamaytirish, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli kreditlar berish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish	Vashington, AQSH

	Xalqaro valyuta jamg'armasi	1945	Bretton-Vuds, AQSH	190 davlat	Valyuta barqarorligini ta'minlash, xalqaro to'lov tizimini tartibga solish, qisqa muddatli moliyaviy yordam berish, makroiqtisodiy monitoring	Vashington, AQSH
	Yevropa qayta qurish va taraqqiyot banki	1991	London, Buyuk Britaniya	71 davlat	O'tish iqtisodiyotiga yordam berish, xususiy sektorni rivojlantirish, bozor iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash	London, Buyuk Britaniya
	Osiyo taraqqiyot banki	1966	Manila, Filippin	68 a'zo	Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, qashshoqlikni bartaraf etish	Manila, Filippin
	Afrika taraqqiyot banki	1964	Abidjan, Kot-d'Ivuar	81 a'zo	Afrika qit'asida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, infratuzilma qurish	Abidjan, Kot-d'Ivuar
	Amerika qitasi taraqqiyot banki	1959	Vashington, AQSH	48 a'zo	Lotin Amerikasi mamlakatlarida rivojlanishni tezlashtirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash	Vashington, AQSH
Savdo tashkilotlari	Jahon savdo tashkiloti	1995	Jeneva, Shveytsariya	164 a'zo	Xalqaro savdoni liberallashtirish, bojxona to'siqlarini kamaytirish, savdo nizolarini hal qilish, savdo qoidalarini ishlab chiqish	Jeneva, Shveytsariya

	BMT Savdo va Taraqqiyot konferensiyasi	1964	Jeneva, Shveysariya	195 a'zo	Rivojlanayotgan mamlakatlarning savdo imkoniyatlarini kengaytirish, texnik yordam berish, investitsiyalarni rag'batlantirish	Jeneva, Shveysariya
Mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar	Yevropa Ittifoqi	1957/1993	Rim, Italiya	27 davlat	Yagona ichki bozorni shakllantirish, iqtisodiy va siyosiy integratsiyani chuqurlashtirish, yagona valyuta tizimini boshqarish	Bryussel, Belgiya
	Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik	1989	Kanberra, Avstraliya	21 a'zo	Mintaqada erkin savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish	Singapur
	Janubiy Amerika umumiy bozori	1991	Asunson, Paragvay	4 to'liq a'zo, 6 qo'shma a'zo	Mintaqaviy savdo integratsiyasini mustahkamlash, bojxona ittifoqini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlik	Montevideo, Urugvay
	Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi	1994	-	3 davlat (AQSH, Kanada, Meksika)	Shimoliy Amerika mamlakatlarida bojxona to'siqlarini bartaraf etish, savdoni erkinlashtirish	-
	Janubi-Sharqiy Osiyo Davlatlar Assotsiatsiyasi	1967	Bangkok, Tailand	10 davlat	Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, madaniy	Jakarta, Indoneziya

					almashinuvni kengaytirish	
	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi	2015	Astana, Qozog'iston	5 davlat	Tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatini ta'minlash, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish	Moskva, Rossiya
Sohaviy tashkilotlar	Xalqaro energetika agentligi	1974	Parij, Fransiya	31 a'zo	Energetika xavfsizligini ta'minlash, neft zahiralarini boshqarish, energiya siyosatini muvofiqlashtirish	Parij, Fransiya
	Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti	1960	Bag'dod, Iroq	13 a'zo	Neft narxlarini barqarorlashtirish, a'zo davlatlar manfaatlarini himoya qilish, ishlab chiqarish hajmini tartibga solish	Vena, Avstriya
	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti	1948	Jeneva, Shveysariya	194 a'zo	Jahon aholisining sog'lig'ini yaxshilash, kasalliklarni nazorat qilish, tibbiy standartlarni ishlab chiqish	Jeneva, Shveysariya
	Xalqaro mehnat tashkiloti	1919	Parij, Fransiya	187 a'zo	Mehnat huquqlarini himoya qilish, ish sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy adolatni ta'minlash	Jeneva, Shveysariya
Standartlashtir	Xalqaro standartlashtirish tashkiloti	1947	London, Buyuk Britaniya	168 milliy organ	Xalqaro texnik standartlarni ishlab chiqish, sifat nazoratini ta'minlash, tovarlar	Jeneva, Shveysariya

					uyg'unligini shakllantirish	
	Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi	1865	Parij, Fransiya	193 a'zo	Telekommunikatsiya standartlarini belgilash, radio chastotalarini taqsimlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish	Jeneva, Shveysariya
Boshqa muhim institutlar	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	1961	Parij, Fransiya	38 a'zo	Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, sayyor keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish, siyosatlarni tahlil qilish	Parij, Fransiya
	Yigirmalik guruhi	1999	Berlin, Germaniya	19	Global iqtisodiy boshqaruvni muvofiqlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy siyosatlarni muhokama qilish	O'zgaruvchan

adval ma'lumotlarini chuqur tahlil qilish xalqaro institutlar tizimining bir necha muhim xususiyatlarini ochib beradi. Birinchidan, zamonaviy xalqaro institutlarning aksariyati Ikkinchi jahon urushidan keyin, ayniqsa 1944-1995 yillar oralig'ida tashkil topgan bo'lib, bu davr global tartibni qayta qurish va yangi xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish zaruriyatidan kelib chiqqan. Eng qadimgi institut Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi bo'lib, u 1865-yilda tashkil etilgan, bu esa texnologik rivojlanish va xalqaro aloqalar ehtiyoji 19-asrda ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, a'zolar soni jihatidan institutlar keskin farqlanadi: BMT Savdo va Taraqqiyot konferensiyasi 195 a'zoga ega eng keng qamrovli tashkilot bo'lsa, ba'zi mintaqaviy birlashmalar faqat 3-4 davlatni birlashtirgan. Geografik jihatdan institutlarning bosh qarorgohlari asosan Yevropa va Shimoliy Amerikada joylashgan bo'lib, bu mintaqalarning tarixiy va iqtisodiy ta'sirchanligini aks ettiradi. Uchinchidan, institutlar ixtisoslashuv darajasiga ko'ra umumiy va tor yo'nalishli ga bo'linadi, bu esa

global iqtisodiyotdagi murakkablashuvni va sohaviy tartibga solish ehtiyojini ko'rsatadi.

Institutlarning asosiy vazifalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ular uch asosiy yo'nalishda faoliyat yuritadi: moliyaviy yordam va investitsiyalar, savdo tartibga solish va liberallashtirish, hamda mintaqaviy integratsiya va maxsus sohalarni boshqarish. Moliyaviy institutlar orasida Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi 189-190 a'zoga ega bo'lib, deyarli universal qamrovga erishgan, bu ularning global moliyaviy tizimda markaziy o'rnini tasdiqlaydi. Mintaqaviy taraqqiyot banklari mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda maqsadli moliyaviy yordam beradi va ularning a'zolari soni 48 dan 81 gacha o'zgaradi. Savdo tashkilotlari, xususan Jahon savdo tashkiloti 164 a'zo bilan global savdo qoidalarini belgilaydi, bu esa dunyoning ko'pchilik mamlakatlari birgalikda kelishilgan savdo me'yorlariga amal qilishini ta'minlaydi. Mintaqaviy birlashmalar nisbatan kichik a'zolar soniga ega bo'lsada, ular chuqur integratsiya darajasiga erishgan va o'z mintaqalarida kuchli iqtisodiy ta'sirga ega. Sohaviy tashkilotlar, masalan OPEK 13 a'zo bilan global neft bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa a'zolar sonining emas, balki resurs nazoratining muhimligini isbotlaydi. Standartlashtirish institutlari texnik jihatdan deyarli universal qamrovga ega bo'lib, global savdo va texnologiya almashinuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, xalqaro institutlar global iqtisodiy integratsiya jarayonining asosiy katalizatorlari hisoblanadi. Moliyaviy, savdo, mintaqaviy va sohaviy institutlar har biri o'ziga xos funktsiyalar orqali iqtisodiy barqarorlik, savdo erkinligi va texnologik hamkorlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari global institutlar tizimi murakkab va ko'p qirrali ekanligini, ularning tashkil etilish tarixi va a'zolar soni global iqtisodiy ta'sirchanlik bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Analiz shuni ochib berdiki, moliyaviy institutlar Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi orqali keng qamrovli iqtisodiy yordam ko'rsatadi, savdo tashkilotlari esa global bozorda liberallashtirish va nizolarni hal qilish mexanizmlarini ta'minlaydi. Mintaqaviy birlashmalar va sohaviy institutlar esa hududiy va sektorli integratsiya orqali chuqurroq iqtisodiy hamkorlikni rag'batlantiradi. Standartlashtirish institutlari texnologik va savdo uyg'unligini ta'minlash orqali global jarayonlarni soddalashtiradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, institutlarning vazifalari va a'zolar soni jihatidan farqlanishi ularning samaradorligi va ta'sir doirasiga bevosita ta'sir qiladi. Ba'zi global institutlar keng qamrovli strategik qarorlar qabul qilsa, mintaqaviy va sektorli institutlar maqsadli va tor doiradagi loyihalarni amalga oshiradi. Bu esa global iqtisodiyotda institutlar o'rtasidagi funksional bo'linishni va strategik moslashuv zaruratini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot institutlar faoliyati va empirik iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ham ochib beradi. Xalqaro moliyaviy institutlar, savdo va mintaqaviy tashkilotlar integratsiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilashda muhim rol o'ynaydi, biroq ayrim holatlarda ularning ta'siri milliy institutlar siyosati bilan ziddiyatga tushishi mumkin. Shu bilan birga, global institutlar bilan integratsiyaning rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga bo'lgan ta'siri yetarlicha empirik tahlil qilinmaganligi ilmiy bo'shliq sifatida qolmoqda.

Olib borilgan izlanishlar natijasidabiz quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

Birinchidan, O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda global institutlar bilan integratsiyaning iqtisodiy natijalari bo'yicha empirik tadqiqotlar sonini oshirish, bu orqali institutlar siyosati va milliy iqtisodiy strategiyalarni moslashtirish,

Ikkinchidan, xalqaro institutlar va mintaqaviy birlashmalar o'rtasidagi funksional bo'linish va hamkorlik mexanizmlarini yanada samarali shakllantirish, mintaqaviy integratsiya loyihalarining muvaffaqiyatini oshirish,

Uchinchidan, milliy institutlar va global institutlar o'rtasida siyosiy va iqtisodiy moslashuvni kuchaytirish uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqish, integratsiya jarayonining ijobiy ta'sirini maksimal darajada ta'minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] D. Rodrik, The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy. New York: W.W. Norton, 2011. <https://wwnorton.com/books/The-Globalization-Paradox>

[2] J. E. Stiglitz, Globalization and Its Discontents Revisited. New York: W.W. Norton, 2017. <https://wwnorton.com/books/Globalization-and-Its-Discontents-Revisited>

[3] D. C. North, Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511808678>

[4] J. A. Frankel and A. K. Rose, "The Endogeneity of the Optimum Currency Area Criteria," The Economic Journal, vol. 108, no. 449, pp. 1009–1025, 1998. <https://doi.org/10.1111/1468-0297.00327>

[5] Sh. Egamberdiyev va A. Qobulov, "O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga xalqaro integratsiya ta'siri masalalari," Web of Scholar / Ilmiy elektron jurnal, 2021. <https://web-journal.ru/ilmiy/article/view/5799>

[6] D. Rakhmonova, "What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions," Green Economy and Development, 2022. <https://www.green-eco.uz/index.php/GED/article/view/4888>

[7] Jahon banki, "A'zolar," Jahon banki guruhi, 2024. [Onlayn]. Mavjud: <https://www.worldbank.org/en/about/leadership/member>

- [8] Xalqaro valyuta jamg'armasi, "A'zolar ro'yxati va qo'shilish sanalari," XVJ, 2024. <https://www.imf.org/external/np/sec/memdir/memdate.ht>
- [9] "XVJ yillik hisoboti 2024 haqida," Xalqaro valyuta jamg'armasi, 2024. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/ar/2024/what-we-do/about-the-imf/>
- [10] "Komissiyalar, guruhlar va klublar haqida qo'llanma," XVJ, 2024.: <https://www.imf.org/en/about/factsheets/a-guide-to-committees-groups-and-clubs>
- [11] "International Monetary Fund," Wikipedia, 2024. https://en.wikipedia.org/wiki/International_Monetary_Fund
- [12] "World Trade Organization," Wikipedia, 2024. [Onlayn]. Mavjud: https://en.wikipedia.org/wiki/World_Trade_Organization [Murojaat qilingan sana: 26-dekabr, 2025].
- [14] "JST a'zolari va kuzatuvchilari," Jahon savdo tashkiloti, 2024. [Onlayn]. Mavjud: https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm
- [15] "Member states of the World Trade Organization," Wikipedia, 2024. https://en.wikipedia.org/wiki/Member_states_of_the_World_Trade_Organization [Murojaat qilingan sana: 26-dekabr, 2025].
- [16] A. Peres, "JST: muammolar va imkoniyatlar," Jamoa kutubxonasi tadqiqot brifingi, 6-avgust, 2025. <https://commonslibrary.parliament.uk/research-briefings/cbp-9942/>